

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

FAXRIDDINOV ZAFAR XAYRIDDINOVICH

**HAKIM TERMIZIYNING «TAHSIL NAZOIR AL-QUR’ON» ASARI –
QUR’ON ILMLARIGA OID MUHIM MANBA**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**ISLOMSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
исламоведческим наукам**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on islamic
sciences**

Faxriddinov Zafar Xayriddinovich

Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari Qur'on ilmlariga oid muhim manba..... 3

Fakhriddinov Zafar Khayriddinovich

Hakim Tirmidhi's work of «Tahsil nazair al-Qur'an» is an important source on Qur'anic sciences..... 25

Фахриддинов Зафар Хайриддинович

Труд Хакима Тирмизи «Тахсиль назаир ал-Кура'ан» как важный источник по кораническим наукам..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 52

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

FAXRIDDINOV ZAFAR XAYRIDDINOVICH

**HAKIM TERMIZIYNING «TAHSIL NAZOIR AL-QUR’ON» ASARI –
QUR’ON ILMLARIGA OID MUHIM MANBA**

24.00.02 – Qur’onshunoslik. Hadisshunoslik

**ISLOMSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Isl55 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya referati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.iiu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Usmonov Ibrohim Sobirovich
tarix fanlari nomzodi, dosent

Rasmiy opponentlar:

Muxamedov Ne‘matullo Asatullayevich
tarix fanlari doktori, dosent

Namozov Bobir Bahriyevich
falsafa fanlari doktori, dosent

Yetakchi tashkilot:

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar berish DSC.35/30.12.2019.Isl/T/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» iyun soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi 11-uy, Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440056, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№130 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko‘chasi 11-uy. Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440056, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» may kuni tarqatildi.
(2023 yil «5» maydagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R.Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

S.A.Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filoloniya fanlari doktori (DSc), dosent

Z.M.Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filoloniya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kechayotgan globallashuv sharoitida islom dinining muqaddas manbasi – Qur’oni karimning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash va xolis yetkazish dolzarb bo‘lib bormoqda. Mazkur maqsadni amalga oshirishda «Ulum al-Qur’on» (علوم القرآن – Qur’on ilmlari)ning muhim qismlari hisoblangan «tafsir va ta’vil» (التفسير والتاويل) ilmlari muhim rol o‘ynaydi. Bu borada movarounnahrlik olim Hakim Termiziy ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. Allomaning “Tahsil nazoir al-Qur’on» (تحصيل نظائر القرآن – «Qur’onning purma’no so‘zlari yig‘indisi») asarida «ta’vil”ning asosiy tushunchalaridan «vujuh va nazoir» (الوجوه والنظائر – ma’nolar va shakldoshlar)ga doir muhim nazariyalar jamlangan bo‘lib, manba o‘rta asr musulmon olimlarining ushbu yo‘nalishdagi qarashlari shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur asar Qur’on ilmlari rivoji hamda «tafsir va ta’vil»ning taraqqiy etish xususiyatlarini aniqlashda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Jahondagi islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazlarida Hakim Termiziy Qur’on ilmlariga doir merosini o‘rganish yuzasidan tizimli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. G‘arb olimlari allomaning tasavvuf, hadis va lug‘at ilmiga oid qarashlari tadqiqiga e’tibor qaratishayotgan bo‘lsa, Sharq musulmon olimlari Hakim Termiziy asarlari qo‘lyozmalarini aniqlash, ularning kodikologik va qiyosiy tahlilini amalga oshirish, ijtimoiy ahamiyatini ochib berishga ahamiyat berishmoqda. «Tahsil nazoir al-Qur’on»ni ilmiy asosda tadqiq qilish Qur’on oyatlari talqini va «vujuh va nazoir» (الوجوه والنظائر) uslublarining shakllanish tarixini o‘rganish bilan bir qatorda, bugungi kundagi dolzarb muammolarga yechim topishga ham xizmat qiladi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada termizlik allomalar ilmiy merosini tadqiq etish, qo‘lyozmalarni aniqlash, ularning zamonaviy nashri, tarjima va sharhlarini tayyorlash, keng jamoatchilikka yetkazib berish maqsadida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Hakim Termiziyning «Navodir al-usul» (نوادير – اصول «Kamyob usullar») asarining to‘liq ilmiy-tanqidiy matni yaratildi, «Manhiyot» (المنهيات – «Qaytarilgan amallar»), «Adab an-nafs» (أدب النفس – “Nafs odoblari”) va boshqa kitoblaridan saylanmalar tarjima qilinib, nashr etildi. «Tahsil nazoir al-Qur’on» asarining tadqiq qilinishi allomaning Qur’on ilmlaridan «tafsir va ta’vil”ning muhim qismi hisoblangan «vujuh va nazoir» tarmog‘ining shakllanishidagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017 yil 14 fevraldagi PQ-2774-son «Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi islom sivilizasiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi hamda 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertasiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hakim Termiziy hayoti, faoliyati, ilmiy merosi G‘arb va Sharq sharqshunoslari, islomshunos olimlari tomonidan tadqiq etilib, bu bo‘yicha ko‘plab ilmiy maqolalar e‘lon qilingan.

G‘arb olimlaridan V.Bartold, V.Jukovskiy, I.Petrushevskiy, Ye.Bertels, I.Goldsiyer, J.Trimingem, A.Mets, K.Brokkelman, A.Masse, A.Knish kabilar Markaziy Osiyo tasavvufi allomalari va ularning ilmiy merosi to‘g‘risida, L.Massinon, N.Hir, B.Radtke, A.Arberri, P.Nviya, A.Shimmel esa, Hakim Termiziy hayoti va ijodi borasida muhim ma‘lumotlar berishgan¹.

Arab olimlaridan K.Avayza, A.Baraka, A.Soyih, U.Yahyo, M.Juyushiy, R.Huzayyan, X.Zahriy kabi olimlarning tadqiqotlarida Hakim Termiziy hayoti va asarlari, xususan «Tahsil nazoir al-Qur‘on» haqida qisqacha ma‘lumotlar keltirilgan. Misrlik olim Husniy Zaydon Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur‘on» asarini nashrga tayyorlab, 1969 yilda chop ettirgan. Qur‘on ilmlarining «vujuh va nazoir» tarmog‘ini o‘rganishda zamonaviy arab tadqiqotchilaridan S.Avo va N.Munajjid fundamental tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida Hakim Termiziyning «vujuh va nazoir» borasidagi yondoshuviga alohida to‘xtab o‘tilgan².

¹ Бартольд В. Сочинения. – М.: Восточная литература, 1963. – Т. II.; Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой (Кяшф аль-махджуб) Критический текст. Под. В.Жуковский. Ленинград: Государственная академическая типография, 1926.; Петрушевский И. Ислам в Иране. – Лен.: Ленинградский ун-т, 1966.; Бертельс Е. Суфизм и суфийская литература. М.: Наука, 1965.; Голдциер И. Лекции об исламе / перевод с немецкого А.Н.Черновой. – СПб.: Брокгауз-Евфрон, 1912.; Trimmingham J. The sufy orders in islam. London: Oxford – N.Y., 1973.; Мец А. Мусульманский ренессанс / Перевод с немецкого Д.Е.Бертельса. М.: Наука, 1966.; М Brockelmann С. Geschichte der arabischen Literatur. – Supplementband I-III. – Leiden, 1937.; Массэ А. Ислам очерк истории. Перевод с французского Н.Б. Кобриной и Н.С. Луцкой. – М.: Издательство Восточной литературы, 1963.; Кныш А. Мусульманский мистицизм. – М.: Диля, 2004.; Massignon L. Essai Sur Les Origines Du Lexique Technique De La Mystique Musulmane. Paris: Geuthner, 1922.; Heer N. Some biographical and bibliographical notes on al-Hakim at-Tirmidhi // The World of islam: studies in honour of Philip Hitti. –London: 1959. – 30 p.; Radtke B. Al-Hakim at-Tirmidi. Freiburg: Klaus Schwarz Verlag, 1980.; Arberry A. Sufism. – London George Allen and Unwin LTD, 1950.; Nviya P. Al-Hakim at-Tirmidi et le la ilaha illallah. // Melanges de l’Universite. –Santh Joseph.XL/V/9 1968.; Шimmel А. Мир мусульманского мистицизма. – М.: Энигма, Алатай, 2000.

² Avayza K. Al-Hakim at-Termiziy al-faqih an-noqid. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya,1993.; Baraka A. Al-Hakim at-Termiziy va nazariyyatuhu fil-valoya. – Qohira: Majmaa al-buhus al-islomiyaya, 1971.; Soyih A. Al-Hakim at-Termiziy // Xatm al-avliyo lil-Imom al-hofiz al-Hakim at-Termiziy. Nashrga tayyorlovchi A.Soyih. –Qohira: Maktaba as-saqofa ad-diyaniyya, 2008.; Yahyo U. Muqaddima omma // Kitob xatm al-avliyo. – Bayrut: al-Maktaba al-kosulikiyya, 1965.; Juyushiy, M.I. al-Hakim at-Termiziy – dirosatun li-osorihi va afkorihi. Qohira: Dor an-nahza al-arabiyya, 1980.; Huzayyan R. Al-Hakim at-Termiziy va manhajuhu al-hadisiy fi Navodir al-usul. – Qohira: Dor al-oyoq, 1998.; Zahriy X. Hakimu Xuroson va anis az-zamon. – Rabot: ar-Riyoza al-muhammadiyya lil-ulamo, 2013.; Zaydon H. Muqaddima // Tahsil nazoir al-Qur‘on lil-Hakim at-Termiziy. Nashrga tayyorlovchi H.Zaydon. Qohira: Matbaatu-s-saada, 1969-70.; Al-Avo S.M. al-Vujuh van-nazoir fil-Qur‘on al-karim. Bayrut: Dor ash-shuruq, 1998.; Munajjid N.M. al-Ishtirok al-lafziy fil Qur‘on al-karim: bayna an-nazariya vat-tatbiq. Damashq: Dor al-fikr, 1999.;

Turkiyalik olimlardan S.Chift, S.Qoya, M.Uyar, A.Abdurrazzoq, I.Ishitan ushbu mavzu doirasida tadqiqot olib borganlar³. Solih Chift Hakim Termiziyning tasavvufiy qarashlarini yoritgan bo'lsa, Sulaymon Qoya allomaning «vujuh va nazoir» ilmiga qo'shgan hissasi borasida alohida tadqiqot amalga oshirgan. Ibrohim Ishitan va Abdullatif Abdurrazzoq Hakim Termiziyning tasavvufdagi psixologik yondoshuvlarini ochib berishgan.

O'zbekistonda U.Uvatov, I.Usmonov, T.Annayev, A.Muminov, A.Shoshiy, D.Maxsudov, R.Abdullayev va J.Cho'tmatov⁴ tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda Hakim Termiziy hayoti va ilmiy merosi yoki muayyan asarlariga to'xtab o'tilgan. Mazkur ilmiy ishlarda olim termizlik ulamolar qatorida zikr etilgan. Islomshunos H.Aminov «Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining o'zbek tiliga tarjimasini ilk bora nashr etgan⁵.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2012-2014 yillarga mo'ljallangan A-1-051 – «Islomshunoslik muammolarini birlamchi manbalar va ajdodlarimiz diniy-ma'rifiy merosini tizimli tahlil qilish asosida yosh avlodda sog'lom e'tiqodni shakllantirish» mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Hakim Termiziy «Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining Qur'on ilmlari rivojidadagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Hakim Termiziyning oyat va hadis sharhiga oid asarlarini tasniflash;
«vujuh va nazoir» ilmining shakllanish tarixi va Qur'onni anglashdagi o'rnini ochib berish;

«vujuh va nazoir» ilmida ijod qilgan olimlar va ularning asarlarini tasniflash;

«Tahsil nazoir al-Qur'on» qo'lyozmalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish;
manbani tadqiq etishning o'ziga xos xususiyatlarni ochib berish;

asarda qo'llanilgan sharhlash uslublarni aniqlash;

Hakim Termiziyning tafsir va ta'vil borasidagi qarashlarini yoritib berish;

alloma e'tiqodiy qarashlarining asar uslubiga ta'sirini ko'rsatib berish va taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

³ Çift S. Hakim Tirmizi ve tasavvuf anlayışı. Istanbul: İnsan yayinlari, 2008.; Kaya S. Hakîm etTirmîzî'de vücûh ve nezâir. – Istanbul: Ragbet, 2016.; Uyar M. Hakîm Et-Tirmîzî'nin 'Risâletü keyfiyyeti's-sülûk ilâ rabbi'l-âlemîn' adli eserinde bireysel bir çaba olarak uzlet, halvet ve keşf süreci. – Samsun: Ondokuz Mayıs Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, Aralık/December 2018. – S. 209-242.; Abdurrezzâk A. Hakîm Tirmîzî'nin psikoloji anlayışında öğrenme ve algılama. Bursa: T.C.Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Cilt: 11, Sayı:2, 2002. – S. 237-250.; İshitan İ. Hakîm Tirmîzî Lecture de Beyân al-Farq Psychologie Spirituelle des Soufis // https://www.youtube.com/watch?v=-_ttWrUWD7Y.

⁴ Uvatov U. Al-Hakim at-Termiziy. – T.: Ma'naviyat, 2001.; Usmonov I. Navodir al-usul hikmatlari – T.: Fan, 2009.; Annayev T. Al-Hakim at-Termiziy. – T.: Xalq merosi, 1998.; Muminov A. Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o'rni va roli (II-VII/VIII-XIII asrlar): tar.fan.dokt. dis... avtoref. – T.: Toshkent islom universiteti, 2003.; al-Hakim at-Termiziy. Manzil al-ibod min al-iboda. – Tarjimon A.Shoshiy. – T.: Movarounnahr, 2003.; Maxsudov D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlari. Monografiya. – T.: O'zXIA, 2019.; Abdullayev R. Hakim at-Termiziy: hayoti va ilmiy merosining o'rganilishi. – Toshkent: Yangi nashr, 2015.; Cho'tmatov J. VII-IX asrlarda Termiz ma'naviy muhiti tarixi: an'analari, tadjir va yangilanish. – Tar fan. fals.dokt. (PhD) dis. avtoreferati. S.: Samarqand davlat universiteti, 2020.

⁵ Al-Hakim at-Termiziy. Qur'ondagi ma'nodosh so'zlar. – T.: Navro'z, 2017.

Tadqiqotning ob'yektini Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asaridagi Qur'on va tafsir ilmlarining «vujuh va nazoir» tarmog'iga oid yondoshuvlari va uslublari olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Hakim Termiziy Qur'oni karimdagi lafzlarning bir shaklda bo'lgani holda ko'plab ma'nolarni ifoda eta olishi (الإشتراك اللفظي – lafziy mushtaraklik, shakldoshlik) tilning tabiiy xususiyati ekanini isbotlash orqali Qur'on ilmlarida yangi «lug'aviy sharhlash» uslubiga asos solgani manbadagi 81 ta «nazoir» (النظائر – shakldosh) atamaning 258 ta «vajh»i (الوجه – ma'no) sharhlarining qiyosiy tahlili asosida ochib berilgan;

ilmiy jamoatchilikda mavjud Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari uslubi Muqotil ibn Sulaymon (vaf. 767 y.)ning «al-Vujuh va an-nazoir fil-Qur'on» (الوجوه والنظائر في القرآن) nomli asariga tayanishi to'g'risida shakllangan xulosa, ushbu ikki manbaning ichki tuzilishidagi jiddiy farqlar mavjudligi, 81 ta so'zdan 57 tasi bir-biriga muvofiq kelishi, so'zlar sharhining turlicha ekani sabablariga ko'ra yetarli asosga ega emasligi dalillangan;

«Tahsil nazoir al-Qur'on»dagi «mufasssara» (مُفَسَّرَةٌ – tafsir qilingan oyat) va «ta'viluhu» (تَأْوِيلُهُ – uning ta'vili, mohiyati) ta'riflari keyinchalik Qur'on va tafsir ilmlarida tafsir rivoyatga, ta'vil esa fikriy izlanishlarga asoslanishi borasidagi qarashlar yuzaga kelishiga ta'sir qilgani isbotlangan;

Hakim Termiziy qarashlarida oyatlardagi «imon» (الإيمان – imon-e'tiqod), «islom» (الإسلام – islom dini) kabi so'zlar sharhida ularning o'zaro ma'nodosh xususiyatga ega ekani hanafiy mazhabidagi «mo'min» (المؤمن) va «musulmon» (المسلم) bir xil mazmun kasb etishi hamda «imon»ning «tasdiq»dan iboratligi atamalarning sharhlari qiyosiy tahlili orqali dalillangan;

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Hakim Termiziyning Qur'on oyatlari tafsiri va hadislar sharhiga oid 10 ta asari aniqlanib, ularning tasnifi amalga oshirildi va ular orasida «Tahsil nazoir al-Qur'on» nomli manba bevosita Qur'on ilmlarining hozirda unutilib borayotgan tarmog'i – «vujuh va nazoir»ga doir ekani dalillangan;

Hakim Termiziy Qur'onni tushunish va tushuntirish zarurati hamda oyatlardagi so'zlarning to'g'ri talqin qilinishi muammolarini hal etish uchun Qur'ondagi 81 ta atamani (71 ta ot, 8 ta fe'l, 2 ta sifat) «nazoir» (shakldosh), deb baholab, ularning umumiy hisobda 258 ta «vajhi» (ma'no)ni sanab o'tgani ochib berilgan;

«Tahsil nazoir al-Qur'on»da sharhlangan so'zlar orasida bitta so'z boshqa shu turkumdagi asarlarda uchramasligi, asarda aqliy dalilni kuchaytirish maqsadida 50 ta shaxs nomi va ular bilan bog'liq rivoyatlar keltirilgani aniqlangan;

«Tahsil nazoir al-Qur'on»da Qur'ondagi so'zlarning o'zagi, ma'nolari, etimologiyasi, ma'nolarning o'zakka qaytishi nazariyasi kabi tamoyillar jamlangani,

shuningdek, diniy argumentasiyaga (154 ta oyat va 19 ta hadis) murojaat mavjudligi sababli allomaning sharhlash uslubi unikal ekani, asar tafsir va ta'vil nazariyasiga oid ilk manbalardan biri ekani isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining Misr Arab Respublikasi Iskandariya shahrining Baladiya kutubxonasi qo'lyozma fondida II/35852ج inventar raqami ostida saqlanayotgan va Qohiradagi Dor al-kutub al-Misriyya kutubxonasi fondida 3238ج inventar raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari hamda Husniy Zaydon tomonidan amalga oshirilgan zamonaviy nashriga tayanilgani, dalillar bilan asoslangani, zamonaviy qiyosiy-tarixiy usullardan foydalanilgani hamda Sharq va G'arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bayon etilgan Hakim Termiziyning Movarounnahr islom ilmlari rivojidadagi o'rni hamda «Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining Qur'on va tafsir ilmida muhim manba ekani borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar sohaga oid kelgusi ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan «Islom tarixi va manbashunosligi», «O'rta Osiyoda islom tarixi», «Islomshunoslik», «Qur'onshunoslik», «Tafsir uslublari», «Tasavvufiy tafsirlar», «Tasavvufga kirish», «Tasavvuf» kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitishda, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg'ulotlari va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari Qur'on ilmlariga oid muhim manba ekani bo'yicha tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

Hakim Termiziy Qur'oni karimdagi lafzlarning bir shaklda bo'lgani holda ko'plab ma'nolarni ifoda eta olishi (الإشتراك اللفظي – lafziy mushtaraklik, shakldoshlik) tilning tabiiy xususiyati ekanini isbotlash orqali Qur'on ilmlarida yangi «lug'aviy sharhlash» uslubiga asos solgani manbadagi 81 ta «nazoir» (النظائر – shakldosh) atamaning 258 ta «vajh» (الوجه – ma'no) sharhlarining qiyosiy tahlili asosida ochib berilgani to'g'risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan «O'rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi» kitobi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 29-martdagi 02/136-son ma'lumotnomasi). Natijada, keng kitobxonlar ommasini allomaning Qur'on ilmlariga qo'shgan hissasi bilan tanishishlariga xizmat qilgan;

ilmiy jamoatchilikda mavjud Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari uslubi Muqotil ibn Sulaymon (vaf. 767 y.)ning «al-Vujuh va-n-nazoir fi-l-Qur'on» (الوجوه والنظائر في القرآن) nomli asariga tayanishi to'g'risida shakllangan xulosa, ushbu ikki manbaning ichki tuzilishidagi jiddiy farqlar mavjudligi 81 ta so'zdan 57tasi bir-biriga muvofiq kelishi, so'zlar sharhining turlicha ekani sabablariga ko'ra yetarli asosga ega emasligi dalillangan borasidagi ilmiy xulosalar

«Tasavvufga kirish» nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2023 yil 4-apreldagi 02-03/2369-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, «Tahsil nazoir al-Qur‘on» asarining o‘ziga xos jihatlari haqidagi ma‘lumotlar ilmiy jamoatchilikka yetib borishiga xizmat qilgan;

«Tahsil nazoir al-Qur‘on»dagi «mufasssara» (مُفَسَّرَةٌ – tafsir qilingan oyat) va «ta’viluhu» (تَأْوِيلُهُ – uning ta’vili, mohiyati) ta’riflari keyinchalik Qur‘on va tafsir ilmlarida tafsir rivoyatga, ta’vil esa fikriy izlanishlarga asoslanishi borasidagi qarashlar yuzaga kelishiga ta’sir qilgani isbotlangani xususidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan, «Hakim Termiziy» nomli risola hamda Hakim Termiziyning «as-Solatu va maqosiduha» («Namoz va uning maqsadlari»), «Bayon al-farq bayn as-sadr val-qalb val-fuod val-lubb» («Sadr, qalb, fuod va lub orasidagi farq bayoni») va «Aql va havo» nomli kitoblarning mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston musulmonlar idorasi tasarrufidagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 29-martdagi 01-07/49-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, sof islomiy tushunchalardan biri bo‘lgan «ta’vil» so‘zining mohiyati kengroq ochib berilib, mazkur tushunchani noto‘g‘ri talqin etuvchi toifalarga raddiya berishda asosli manba bo‘lib xizmat qilgan;

Hakim Termiziy qarashlarida oyatlardagi «imon» (الإيمان – imon-e’tiqod), «islom» (الإسلام – islom dini) kabi so‘zlar sharhida ularining o‘zaro ma’nodosh xususiyatga ega ekani hanafiy mazhabidagi «mo‘min» (المؤمن) va «musulmon» (المسلم) bir xil mazmun kasb etishi hamda «imon»ning «tasdiq»dan iboratligi atamalarning sharhlari qiyosiy tahlili orqali dalillangani xususidagi ilmiy xulosalar «O‘zbekiston tarixi» telekanalida efirga uzatiladigan «Buyuk siymolar» hamda «Xalq mulki» ko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023 yil 30 martdagi 06-29-452-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Hakim Termiziy qo‘llagan uslublar ta’vil nazariyasining tizmilashishiga asos bo‘lgani to‘g‘risidagi xulosalar amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta – 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobasiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 8 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan. 3 ta xalqaro va 3 ta mahalliy anjuman to‘plamlarida tezislari e’lon qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 121 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, o‘rganish ob’yekti va predmeti aniqlangan.

Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilib, ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobeziyasi, eʼlon qilingan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning «**Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qurʼon» asarini oʻrganishning ilmiy-nazariy asoslari**», deb nomlangan birinchi bobining «*Hakim Termiziyning islom manbalari sharhiga oid asarlari tasnifi*», deb nomlangan birinchi paragrafida allomaning islom manbalari sharhiga bagʻishlangan asarlari mavzu va uslubiga koʻra tasniflangan. Tadqiqot davomida olimning ilmiy merosi mazmun va mavzu jihatidan xilma-xilligi hamda Qurʼon ilmlari, hadis sharhlari va lugʻat ilmiga oid jami 10 ta asar yozgani aniqlangan. Ulardan 6 tasi bevosita Qurʼon oyatlari sharhiga oid ekani koʻrsatib berilgan. Hakim Termiziyning diniy manbalar sharhiga oid asarlarini umumlashtirgan holda toʻrt guruhga boʻlish mumkin: 1) Qurʼon oyatlari tafsiri, oyatlarda kelgan baʼzi jumlar sharhi va Qurʼondagi ayrim soʻzlarga yozilgan izohlar; 2) hadislar sharhi, ulardagi jumla va soʻzlarga bitilgan alohida izohlar; 3) ibodat bilan bogʻliq atamalarning sharhlari, masalan: fiqh, roʻza, namoz, zakot va h.; 4) tasavvufda qoʻllaniluvchi atamalarning sharh va izohlaridan iborat ekani ochib berilgan. Allomaning sharhlash uslublari orqali uning qarashlarini aniqlash, uning keyingi davr tafsir va taʼvil ilmiga taʼsirini baholash mumkin.

Hakim Termiziy Qurʼon tafsiriga oid fundamental asar – «Tafsir» yozishga kirishgani, biroq, olimning vafoti tufayli mazkur asar nihoyasiga yetmay qolgani haqida maʼlumotlar bor⁶. Mazkur tafsir Turkiyaning Burdur Milliy kutubxonasi fondidan topildi⁷. Tafsirning oʻziga xos jihati shundaki, unda ilk bor aqliy, naqliy va ishoriy (tasavvufiy) sharh uslublari oʻzaro mutanosib holda qoʻllanilishiga erishilgan⁸. Asar «Fotiha» va «Baqara» suralarining tafsirini oʻz ichiga olgan.

Alloma ilmiy merosida islom manbalarida uchraydigan alohida soʻzlarning sharhiga bagʻishlangan asarlar ham mavjud. Masalan, «al-Furuq va manʼu-taroduf» (الفروق ومنع الترادف – «Farqlar va maʼnodoshlikning yoʻqligi»), «Bayon al-farq bayna-s-sadr va-l-qalb va-l-fuod va-l-lubb» (بيان الفرق بين الصدر والقلب والفؤاد واللّب) – «Koʻks, yurak, koʻngil va ong soʻzlarining farqi») va «Tahsil nazoir al-Qurʼon» (تحصيل نظائر القرآن – «Qurʼonning purmaʼno soʻzlari yigʻindisi»), asarlarida Qurʼon va hadislarda uchraydigan soʻzlarning nazariy va lugʻaviy uslublari orqali sharhlanishiga ahamiyat qaratilgan. Bunda oʻzakdoshlarning qiyosiy tahlili, soʻzning asl va koʻchma maʼnolari, oʻzakning mazmun hosil qilishda birlamchi ekani, shuningdek, salbiy va ijobiy tusga ega boʻlgan bir maʼnodosh soʻzlar tahliliga alohida eʼtibor qaratilgan.

Bundan tashqari, Hakim Termiziyning kichik masalalarni oʻzida jamlagan bir nechta «Masoil» (المسائل – «Masalalar») toʻplamlari ham mavjud boʻlib, ularning

⁶ Qarang: Худжвири, Али ибн Усман. Раскрытие скрытого за завесой (Кяшф аль-махджу́б) Критический текст. Жуковский В. – Ленинград: Государственная академическая типография, 1926.–С. 178.

⁷ Qarang: Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qoʻlyozmalari katalogi. – Toshkent: Fan, 2018. B. 138.

⁸ At-Termiziy al-Hakim, Muhammad ibn Ali. Kitob fihi tafsir sura al-Fotiha va oyot min sura al-Baqara. Koʻniya qoʻlyozma asarlar kutubxonasi fondi. Qoʻlyozma. Inv. № 143. . – S. 32a.

ba'zilar Qur'oni karim oyatlari va hadislardagi ayrim so'z va jumalarning sharhiga bag'ishlangan. Bular sirasiga «Tafsiru qavlihi: «Huval-Avvalu val-Oxiru vaz-Zohiru val-Botinu» (تفسير قوله هو الأول والأخر والظاهر والباطن) – «Alloh taoloning «U Avvaldir va Oxirdir, Zohirdir va Botindir», degan gapining tafsiri»), «Mas'ala: qola Alloh: «v-Allohu ya'lamu mutaqallabakum va masvokum» (مسألة: قال الله: وَاللَّهُ يَعْلَمُ مُتَقَلَّبَكُمْ وَمَثْوَاكُمْ) – «Allohning: «Alloh kezadigan va boradigan joylaringizni bilur», degani borasidagi masala») kabi asarlarni kiritish mumkin. Ushbu kichik hajmdagi sharhlarni Qur'on oyatlarining saylanma tafsiri, deb atasa bo'ladi. Ularda ham uslub jihatidan lug'aviy va tahliliy yondoshuv ustunlik qiladi.

Hakim Termiziyning hadis sharhiga bag'ishlangan yirik hajmdagi asari bu «Navodir al-usul»da (نوادير الأصول – «Kamyob usullar») bo'lib, undan muallifning matnlarni sharhlash borasidagi qarashlari haqida to'liq tasavvur hosil qilish mumkin. Olim mazkur kitobini ta'lif etishda so'zlarni leksikografik sharhlash, matnni boshqa matn bilan qiyoslash, lug'aviy tahlil, nufuzli olimlarning fikrlaridan iqtibos keltirish, matnga doir barcha ma'lumotlarni jamlab tahlil qilish uslublaridan foydalangan. Ayni yondoshuvlar «al-Amsol min al-Kitob va-s-sunna» (الأمثال من الكتاب والسنة) – «Qur'on va hadisda kelgan masallar») asarida ham oyat va hadislardagi majoziy yoki nodir jumalarning ma'nosini ochib berishda muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan asarlarning barchasida Hakim Termiziyning islom manbalari sharhi, Qur'on ilmlari, ayniqsa, oyatlar tafsiri, hadislar sharhi borasida samarali ijod qilganini ko'rsatadi. Shuningdek, lug'at va lug'atshunoslik nazariyasi, arab tili leksikografiyasi rivojiga qo'shgan hissasining ko'lamini ochib beradi. Olimlar tomonidan bu borada Hakim Termiziy qo'llagan uslublar ko'p jihatdan o'ziga xos bo'lib, o'zidan oldingi va keyingi mualliflarning asarlariga katta ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan.

Yuqorida keltirilganlardan Hakim Termiziy o'z davrida islom manbalari sharhi va talqini hamda tafsir va ta'vil sohasiga salmoqli hissa qo'shgan yetuk alloma ekani ma'lum bo'ladi. Uning asarlaridagi so'zlar shakllangan an'anaga ko'ra, ham lug'aviy, ham atamaviy jihatdan sharhlangan. Ushbu uslub keyingi davr olimlari asarlarida dominantlik kasb etgan. Ayrim hollarda so'zlarning etimologiyasiga ham e'tibor qaratilgan. Aksar hollarda esa, oyat va hadislardan misol keltirish orqali izohlangan. Barcha asarlarda oyat va hadislardan ko'zlangan maqsad, ularda kelgan so'zlarning asl mohiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur asarlarni o'rganish va tadqiq etish islom manbalarining, ayniqsa, Qur'on matnining tafsiri va talqini ilk davrlarda qanday amalga oshirilganini ochib berishga xizmat qiladi. Zero, Hakim Termiziy sharhlari mintaqamizda yozilgan asarlar ichida davriy jihatdan birlamchilik kasb etadi.

«Vujuh va nazoir» ilmining shakllanishi tarixi va Qur'onni anglashdagi o'rni», deb nomlangan ikkinchi paragrafda «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari mansub bo'lgan Qur'on ilmlari tarmog'i – «vujuh va nazoir» (ma'nolar va shakldoshlar) ilmining shakllanishi tarixi, ushbu ilmning predmeti va bugungi kundagi nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, «vujuh va nazoir» ilmi tarixi barcha islom ilmlari qatorida ilk islom davrida vujudga kelgani, rivoji va hozirgi kundagi tadqiqotlarda qanday o'rin tutgani yoritilgan.

Qur'ondagi ayrim o'rinlar ilk islom davridayoq izohtalab bo'la boshlagan. Bu holatning turlicha sabablari bayon qilingan. Xususan, Qur'onda arab qabilalari orasida keng tarqalgan turli lahjalardagi so'zlarning aralash kelishi, ayrim o'rinlarda majoz qo'llanilishi sahobiylarda muayyan oyatlarning tushunilishida qiyinchilik tug'dirgan. Muhammad (s.a.v.) tiriklik chog'ida tushunilmay qolgan oyatlar yoki oyatlarda kelgan jumla va so'zlarning ma'nosini bevosita Payg'ambarning o'zidan so'rab, bilib olish imkoni bo'lgan. Keyinchalik ushbu qisqa izohlarni o'z ichiga olgan hadislar to'planib, Qur'on oyatlarini izohlashga bag'ishlangan mumtoz islom fanlaridan biri bo'lmish tafsir ilmiga asos sifatida xizmat qilgan.

Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan so'ng ham Qur'ondagi ayrim so'zlarni izohlash va sharhlash ishlari davom etgan. Xususan, Qur'on tarjimoni nomi bilan mashhur sahobiy Abdulloh ibn Abbos (vaf. 687 y.) arab she'riyati bilimdoni sifatida ko'plab kamyob so'zlarning ma'nolarini ochib berilishiga katta hissa qo'shgan⁹. Buning uchun arab lahjalari va johiliyat davri she'riyatidan yaxshi xabardor bo'lish talab etilgan. Ba'zi hadislarda «nazoir al-Qur'on» birikmasi qo'llanilgan bo'lib, mazkur hadislarda Qur'onning hajman bir-biriga o'xshash suralari «nazoir», deb atalgan. Ulardan birida Abdulloh ibn Mas'ud, jumladan, shunday deydi: «Men Rasululloh (s.a.v.) har rak'atda ikkitadan, o'n rak'atda yigirmata sura qilib, qo'shib o'qigan «nazoir»larni aniq bilaman»¹⁰. Ushbu hadisning boshqa uzun matnida Qur'onning «mufassal», deb nomlanuvchi an-Najm, ar-Rahmon kabi suralari nazarda tutilgani bayon qilingan¹¹. Ya'ni bu o'rinda shaklan emas, balki, hajman o'xshashlik «nazoir» atamasi bilan atalgan. Demak, aytish mumkinki, «nazoir» atamasi sahobiylar davridayoq o'ziga xos Qur'onga oid atama sifatida qo'llanila boshlagan.

«Vujuh» atamasi ham ayni ma'noda boshqa bir hadisda keltiriladi. Ushbu sohada ilk to'liq asar bitgan, deb hisoblanuvchi Muqotil ibn Sulaymon (vaf. 767 y.) «al-Vujuh va-n-nazoir fi-l-Qur'on al-azim»da o'z sanadi bilan marfu', ya'ni sanadi Payg'ambargacha ko'tarilgan hadisni o'z asariga muqaddima o'laroq rivoyat qilib keltirgan: «Kimsa Qur'ondagi ko'plab vajhlarni anglab yetmaguncha fiqhda to'liq faqih bo'la olmaydi»¹².

Ushbu hadis, ayni sanad bilan Badruddin Zarkashiyning (1344-1392) «al-Burhon fi ulum al-Qur'on», Jaloluddin Suyutiyning (1445-1505) «al-Itqon fi ulum al-Qur'on» asarlarida ham keltirib o'tilgan. Mazkur hadis Imom Ahmad tomonidan boshqa sanad bilan ham rivoyat qilingan. Hadis matnidagi «vajhlar» (vujuh) so'zi nimani anglatishi noaniq qolgani uchun, Muqotil ibn Sulaymon uni bir so'zning ko'plab ma'nolarini bildiruvchi atama sifatida anglagan va aynan shu maqsadda keltirgan, deyish mumkin. Imom Suyutiy esa bu hadisdan maqsad, botiniy ma'nolar bor ekaniga ishora, deydi¹³.

⁹ Qarang: Obidov R. Qur'on, tafsir va mufasssirlar. – Toshkent: Movarounnahr, 2003. – B. 39-42.

¹⁰ An-Navaviy. Al-Minhoj – sharhi Sahihi Muslim ibn Hajjoj. – Qohira: 1929. – T.6. – S. 106

¹¹ Ahmad Abdurrahmon. Al-Fath ar-Rabboniy li-tartibi Musnadi al-Imom Ahmad. Qohira: Dor ihyo at-turos al-arabiy. Nashr yili ko'rsatilmagan. –T. 3. – S. 212.

¹² Muqotil ibn Sulaymon. Al-Vujuh va an-nazoir fi-l-Qur'on al-azim. – Bag'dod: Markaz Jum'a al-Majid li-s-saqofa va at-turos, 2006. – S.19.

¹³ As-Suyutiy, Jaloludin. Al-Itqon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 2008. – S. 301.

Tadqiqot natijasiga ko'ra, «vujuh» va «nazoir» atamaları Qur'on ilmlari bilan bog'liq istiloh o'laroq hadislarda uchrashi ushbu ilm ilk islom davridayoq yuzaga kela boshlaganini va islom ilmari orasida alohida o'ringa ega bo'lganini ko'rsatadi. Bu o'rinda «nazoir», deb muayyan so'zning Qur'onda bir xil shakl va «harakat» – diakritik belgilar bilan kelishi, ya'ni shakldoshligi bo'lsa, «vujuh» o'sha so'zning farqli ma'nolarni aks ettirishidir. Qur'onda bir so'zning ko'plab ma'nolarda qo'llanilishi uning «e'joz» – mo'jizakorlik xususiyatini aks ettirgan. Shu bilan birga, bu holat ta'vil ilmining nazariy asosi bo'lib xizmat qilgan. «Vujuh va nazoir» ilmini an'anaviy qur'onshunoslikning Qur'ondagi omonimlar va ularning ma'nolarini qamrab oluvchi tarmog'i, deb nomlash mumkin.

Birinchi bobning «Vujuh va nazoir» ilmida ijod qilgan olimlar va unga oid asarlar tahlili» nomli uchinchi paragrafida «vujuh va nazoir» ilmiga asos solgan, uni tizimlashtirgan va bu ilmida ilk bora to'liq asarlar ta'lif qilgan olimlar ilmiy faoliyati va ularning asarlari tahlili o'rin olgan bo'lib, tahlil natijasida mazkur ilmning tadrijiy rivoji va turli davr olimlarining yondoshuvlari aniqlandi.

«Kashf az-zunun»da sahobiy Ibn Abbosning (vaf. 687 y.) mavlosi Ikrima ibn Abdulloh (vaf. 723 y.) tegishli «vujuh va nazoir» ilmiga oid asar mavjudligi zikr qilingani ma'lum¹⁴. Demak, «vujuh va nazoir» sohasida ilk bora sahobiy Ibn Abbos asar ta'lif qilgan bo'lib, undan tobeiyar Ikrima ibn Abdulloh Madaniy (vaf. 723 y.) hamda Ali ibn Abu Talha (vaf. 760 y.) rivoyat qilganlar. Biroq, ayrim tadqiqotchilar alohida asar sifatida zikr etadigan Ikrima va Ali ibn Abu Talhaning asarlari aslida sahobiy Ibn Abbosga mansub asarning turli rivoyatlari bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. Davriy jihatdan keyingi o'rinda tobeiy Muhammad ibn Soib Kalbiyni (vaf. 763 y.) ham sanab o'tilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning «vujuh va nazoir»ga oid asarlari yetib kelmagani bois, hozirgi kunda ushbu yo'nalishdagi eng qadimiy manba Muqotil ibn Sulaymonning (vaf. m. 767 y.) «al-Vujuh va-n-nazoir fi-l-Qur'on al-azim» asari, deb e'tirof etiladi. Muqotil ibn Sulaymondan keyin «vujuh va nazoir» sohasiga bag'ishlangan eng qadimgi manba Horun ibn Muso an-Nahviyga (vaf. 786 y.) mansub «al-Vujuh va an-nazoir fi al-Qur'oni-l-karim» nomli asardir. Keyingi o'rinda Yahyo ibn Salomning (741-815) «at-Tasorif» va Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on» asaridir.

Ibn Javziy Muqotil ibn Sulaymondan keyin yashab ijod qilganlar qatorida Abbos ibn Fazl Ansoriy (vaf. 802 y.), Matruh ibn Shokir (vaf. 894 y.), Abdulloh ibn Horun Hijoziy, Abu Bakr Naqqosh (vaf. 962 y.), Abu Abdulloh Domg'uniy (vaf. 1085 y.), Abu Ali Banno (vaf. 1088 y.), Abu Hasan Zog'uniy (vaf. 1133 y.) kabi shaxslarning nomini sanab o'tgan va «vujuh va nazoir» ilmida barcha narsani jamlagan boshqa birortasini bilmasligini qayd etgan¹⁵.

Shu bilan birga, Ibn Javziy asarlari bizgacha yetib kelgan «al-Vujuh va-n-nazoir fi-l-Qur'oni-l-karim» nomli asar muallifi Horun ibn Muso (vaf. 787 y.), «at-Tasorif» asarini yozgan Yahyo ibn Salom (vaf. 816 y.), «Tahsil nazoir al-Qur'on»

¹⁴ Yahyo ibn Salom. At-Tasorif. H. Shalabiy tadqiqoti. – Tunis: Dor at-Tunisiya lin-nashr, 1979. – S. 13.

¹⁵ Ibn al-Javziy. Nuzhat al-ayun an-navozir fi ilm al-vujuh va an-nazoir. – Bayrut: Muassasa ar-risala, 1987. – S 83-84.

asarini ta'lif etgan Hakim Termiziy va «Vujuhu-l-Qur'on» muallifi Ismoil ibn Ahmad Hiriy (vaf. 1039 y.) nomlarini keltirib o'tmagan.

Misrlik olim Salvo Muhammad al-Avo «vujuh va nazoir» ilmidagi o'n uchta (13) muallifning kitobi yetib kelgan, shundan yettitasi (7) chop etilgan bo'lib, qolgani qo'lyozma holatida ekanini, bundan tashqari, nomi ma'lum, ammo o'zi yetib kelmagan yoki hali topilmagan, deb hisoblanuvchi asarlar ham mavjudligini ta'kidlaydi¹⁶. Yana bir misrlik tadqiqotchi Nuruddin Munajjid umumiy hisobda ma'lum bo'lgan 35ta asar va muallifni sanab chiqqan. Ularning davriy jihatdan eng i hijriy o'n to'rtinchi asrga oid bo'lib, Abdulhodiy Anboriyga (vaf. 1888 y.) tegishli¹⁷.

Bundan ma'lum bo'ladiki, o'z vaqtida «vujuh va nazoir» ilmida asar yozgan olimlar ko'p bo'lgan, ammo ularning asarlari, ba'zan, bir-biriga ma'lum bo'lmagan. Shuningdek, ayrimlari hozirgi davrgacha yetib kelmagan bo'lsada, o'z vaqtida muayyan ilmiy doiralarda ma'lum bo'lgan.

Muqotil ibn Sulaymon «nazoir»larni sanashda eng avval «al-hudā» so'zidan boshlab, so'ngra «al-kufr», «ash-shirk», «savā», «al-maraz», «al-fasād», so'zlarining sharhi bilan davom etib ketgan. Ro'yxat nega aynan bu tartibda ketganiga biror yerda izoh berilmagan. Haqiqatga yaqinrog'i, ushbu tartib, mazkur so'zlarning Qur'onning dastlabki betidan ketma-ketma uchray boshlashiga asoslansa kerak. Masalan, «al-hudā» Baqara surasining 1-oyatida kelsa, «al-kufr» (o'zagi), «savā» ayni suraning 6-oyatida, «al-maraz», «al-fasād» 10 va 11-oyatlarida keladi va bundan avval uchramaydi. Biroq ayni tartib muntazam emas, chunki ro'yxatda uchinchi sanalgan «ash-shirk» so'zi ularning orasida uchramaydi. Muqotil ibn Sulaymonga izdosh maqomidagi Horun ibn Muso, Yahyo ibn Salom va Hakim Termiziy ham aynan shu tartibni asos qilib olganlar.

Dissertasiyaning «**Tahsil nazoir al-Qur'on**»ning manbashunoslik tadqiqi» deb nomlangan ikkinchi bobining «*Asar qo'lyozmalarining qiyosiy tahlili*» nomli birinchi paragrafida «Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining Iskandariya va Qohira fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

«Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining hozirgi kunda ikkita qo'lyozmasi ma'lum bo'lib, ulardan qadimiy nusxasi Misrning Iskandariya shahridagi Baladiya kutubxonasida 3585ج/II raqam ostida saqlanadi. Mazkur qo'lyozma muallifning boshqa asarlari bilan bir jildda bo'lib, ushbu to'plamdan uning «al-Masoil al-maknuna» (Yashirin masalalar, 3585ج/I) va «Kitob ar-radd ala-l-muattila» (Muattila firqasiga raddiya, 3585ج/III) asarlari ham o'rin olgan. Ya'ni, «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari to'plamda «al-Masoil al-maknuna» va «Kitob ar-radd ala-l-muattila» asarlarining o'rtasida joylashgan. Ayni joylashuv asarning nisbatan benuqson saqlanib qolishiga hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

To'plamning kotibi Abu G'onim Muhammad ibn Hibatulloh ibn Muhammad ibn Hibatulloh ibn Ahmad ibn qozi Abu-l-Fazl Ibn al-Adim al-Uqayliy al-Halabiy (vaf. 1262 y.) bo'lib, u Abu Jiroda va Ibn Adim nomlari bilan tanilgan. Ibn Adim

¹⁶ Al-Avo S.M. al-Vujuh van-nazoir fil-Qur'on al-karim. – Bayrut: Dor ash-shuruq, 1998. – S. 20.

¹⁷ Munajjid N.M. al-Ishtirok al-lafziy fi-l-Qur'on al-karim: bayna-n-nazariya va-t-tatbiq. – Damashq: Dor al-fikr, 1999. – S 76-82.

tarixchi, faqih, muhaddis, xattot sifatida juda mashhur shaxs bo'lib, u haqida Yoqut Hamaviy (1178-1229) ham batafsil ma'lumotlar berib o'tgan. Ibn Adim Hakim Termiziyning hozirga qadar saqlanib qolgan aksar asarlari kotibi sifatida ham mashhur.

To'plamdan joy olgan asarlarning barchasi bir vaqtda bir kotib tomonidan hijriy-qamariy taqvimda 593-yilning 17-jumodi-l-ulo sanada ko'chirilgan bo'lib, bu milodiy 1197-yilning 13-apreliga to'g'ri keladi. Qo'lyozma to'lig'icha aniq-ravshan nasx xatida ko'chirilgan bo'lib, matn har bir betda 22 qator. O'lchamlari Iskandariya kutubxonasi katalogida 24x15,5sm, «Kitob ar-radd ala-l-muattila» nashrida esa 24x17sm, deb keltirilgan. Bunday ziddiyat qo'lyozma muqova bilan va muqovasiz o'lchanishining natijasida yoki boshqa bir sabab bilan yuzaga kelishi mumkin. Umumiy ko'rsatkichlarda katta farq yo'q. Asar yaxshi saqlangan, nuqsonsiz, namlik ta'siri o'tgan va teshilgan joylari bor. Jilddan bo'shab, uzilgan, oq qog'oz bilan yamalgan va oxirida ko'chgan joylari ham mavjud¹⁸.

Hozirgi kunda Baladiya kutubxonasining binosi avariya holatiga kelib qolagani sababli qo'lyozma fondi to'lig'icha Iskandariya kutubxonasiga o'tkazilgan va shular qatorida «Tahsil nazoir al-Qur'on»ning qadimiy nusxasi ham yangi kutubxonada saqlanmoqda.

«Tahsil nazoir al-Qur'on»ning yangi ko'chirilgan qo'lyozmasi (Qohira nusxasi) ham mavjud bo'lib, u «Doru al-kutub al-Misriyya» kutubxonasi fondida ب 19516 raqami ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma nusxaning yuzaga kelishiga 3585 ج/II Iskandariya nusxasi asos bo'lgan. Misrlik olim H.Zaydonning ta'kidlashicha, ushbu nusxa xatolarga to'la bo'lib, buning sababi nusxa ko'chiruvchining matnni yaxshi tushunmaganiga borib taqaladi. Shunga qaramay, ushbu yangi qo'lyozmada eski asl nusxadagi Qur'on oyatlarining yozilishida yo'lga qo'yilgan ayrim kamchiliklar to'g'rilab ketilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Asar 80 sahifadan (bet) joy olgan bo'lib, o'lchami 26x19 sm.

Qo'lyozma hotekis nasx xatida ko'chirilgan va tinish belgilari bor. Oq (bo'sh qoldirilgan) o'rinlari bor, ularning yoniga hoshiya sifatidan «asl nusxada oq», deb yozib ketilgan. Ko'chirib tugatilgan sana yakshanba kuni 12-jumodi-l-ulo, hijriy 1355-yil. Bu sana milodiy 1936-yil 30-avgustga to'g'ri keladi. Kotibi Mahmud Hamdiy «Dor al-kutub al-Misriyya»ning moliyasi asosida (buyurtmasiga ko'ra) ko'chirgan¹⁹. Qo'lyozmaning barcha betlari raqamlangani tufayli varaqlarni «a» va «b» betlarga ajratishga ehtiyoj qolmagan. Asar boshlangan 2-betdagi satrlar soni duo jumlasini va basmala bilan qo'shganda 20 qator, qolgan betlardagi satrlar soni 21 qatordan iborat; har bir bet poygir bilan ta'minlangan.

«Manba matnining o'ziga xos xususiyatlari» deb nomlangan ikkinchi paragrafida «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari matnining olimlar va tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilinishi va 1969 yilda H.Zaydon tomonidan tayyorlangan zamonaviy nashridagi muammolar tahliliga bag'ishlangan.

¹⁸ Fihris maxtutot baladiyyati-l-Iskandariya (Iskandariya Baladiyasi qo'lyozmalari katalogi). –Iskandariya: al-Hay'atu-l-omma li-maktabati-l-Iskandariyya, 1998. – B. 333; at-Termiziy, al-Hakim. ar-Radd ala-l-muattila. – Tadqiqotchilar guruhi nashrga tayyorlagan. – Giza: ar-Ravza li-n-nashr va-t-tavze', 2017. – B. 50.

¹⁹ at-Termiziy, al-Hakim. ar-Radd ala-l-muattila. – Tadqiqotchilar guruhi nashrga tayyorlagan. – Giza: ar-Ravza li-n-nashr va-t-tavze', 2017. – B. 51.

«Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining yozilish sababi – Hakim Termiziyning qo'liga «vujuh va nazoir» borasida yozilgan bir kitob tushib qolganidir. Uning «*biz Qur'on nazoiri borasida bitilgan bu kitobga boqqach, bir so'z ko'p vajhlarda tafsir qilinganini ko'rib, o'ylanib qoldik*», degan gapidan faqat shuni tushunish mumkin. Termiziy ushbu kitobni diqqat bilan ko'rib chiqib, uning uslubiga tanqidiy yondoshadi. Birgina so'z o'zining o'zagiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan ma'nolarni anglatishi mumkinligiga e'tiroz bildiradi. Ammo, u kitobning nomi va mullifi haqida hech qanday ma'lumot keltirib o'tmagan. Biroq, matndagi ishoralardan ko'rishimiz mumkinki, H.Zaydon shartli ravishda ajratib chiqqan boblar aynan o'sha noma'lum asarga asoslangan. Hatto ba'zi o'rinlarda iqtiboslar ham keltirilgan.

«Tahsil nazoir al-Qur'on»ga asos bo'lgan manbani aniqlash bo'yicha biror tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. Ayrim tadqiqotchilar bu noma'lum asar «vujuh va nazoir» bo'yicha ilk to'liq asar yozgan Muqotil ibn Sulaymonning «al-Vujuh va-n-nazoir fi-l-Qur'oni-l-azim» nomli asari bo'lishi mumkinligini taxmin qilganlar. Masalan, misrlik olim M.Juyushiy, g'arblik olim P.Nviya, marokashlik tadqiqotchi X.Zahriy ham shu fikrga tayanganlar. Biroq «Tahsil nazoir al-Qur'onga» asos bo'lgan asar Muqotil ibn Sulaymonga tegishli, deb keskin xulosa chiqarishga hech qanday jiddiy asos yo'q. Zotan, ular bir-biriga faqat taqlidan ergashganida barcha asarlarning nafaqat shakli, balki, tarkibi va mazmuni ham bir xil bo'lgan bo'lar edi. Ammo asarlarda faqat shakliy o'xshashlik mavjud bo'lib, tarkibiy jihatdan bir-biridan keskin farq qiladigan o'rinlar mavjud.

Hakim Termiziydan ilgari «vujuh va nazoir»ga bag'ishlangan asar yozgan olimlarni davriy jihatdan sanaladigan bo'lsa, eng avval Muqotil ibn Sulaymon (vaf. h. 150/767 m.), so'ng, Horun ibn Muso (vaf. h. 170/787 m.), so'ngra, Yahyo ibn Salom (vaf. h. 200/816 m.) keladi. Ushbu mualliflarning asarlari uslub jihatidan bir xil yo'ldan ketgan, ya'ni so'zlarning Qur'onda ketma-ketma uchray boshlashiga qarab tartiblangan. Ushbu asarlarni o'zaro solishtirish natijasida Hakim Termiziy keltirgan «nazoir»lar ro'yxatiga eng ko'p muvofiq keladigan asar Muqotil ibn Sulaymonning emas, balki Horun ibn Musoning «al-Vujuh va-n-nazoir fi-l-Qur'oni-l-karim» asari bo'lib, unda yetmish sakkizta (78) so'z Termiziy ro'yxatiga muvofiq kelgani ma'lum bo'ladi. Eng kam muvofiq keladigani esa Yahyo ibn Salomning «at-Tasorif» asari bo'lib, o'ttiz ikkita (32) so'z qaytarilgan. Muqotil ibn Sulaymonda esa ellik yettita (57) so'z muvofiq kelgan. Biroq, «al-xavf», «as-salāt», «an-nās» so'zlari Horun ibn Musoda uchramaydi. Muqotil ibn Sulaymon va Yahyo ibn Salomda esa uchraydi. Bir dona «ar-radā» so'zi esa faqat Hakim Termiziyda uchraydi. M.Juyushiyning Hakim Termiziy Muqotil ibn Sulaymonning asarini o'qib, uning yo'nalishida o'xshatma qilib asar yozgani haqidagi xulosasi, garchi, tadqiqoti natijasi sifatida taqdim etilgan bo'lsa ham noto'g'ri. P.Nviyaning noma'lum asar Muqotil ibn Sulaymon yoki uning asariga juda o'xshash asar ekani haqidagi fikri faqat shakliy o'xshashlikka asoslangan. Shakliy o'xshashlik esa umumiy asar tuzilishidagi umumiy an'anaga tayanilishdan kelib chiqqan.

Misrlik olim H.Zaydon asarni nashrga tayyorlash jarayonida foydalanish uchun oson va qulay manba yaratish ustida ish olib borgan. Bundan ayon bo'ladiki, uning maqsadi sof ilmiy nashr emas, ko'proq zamonaviy ommabop nashr tayyorlash

bo'lgan. Natijada, haqiqatan ham o'qib foydalanish uchun qulay zamonaviy nashr yuzaga kelgan. Ammo, ilmiy istifoda uchun zarur bo'lgan asl qo'lyozmadagi betlar ko'rsatkichlari kiritilmagan. Oqibatda, ushbu nashrdan foydalanmoqchi bo'lgan tadqiqotchiga qo'lyozmaning asos xususiyatlari qorong'uligicha qoladi. Buning ustiga tinish belgilari, boblarga ajratish va raqamlash ishlari ham ayrim o'rinlarda qo'shimcha noaniqliklarni yuzaga keltirgan. Izohlar va aniqlik kiritishlar ham muntazam emas. Ba'zan oyatga tayanilgan ishora va hadislarining manbasi kiritilishi lozim bo'lgan o'rinlarda roviylarning tarjimai hollari bilan cheklanilgan o'rinlar bor.

Hakim Termiziy asarning birinchi bobini «*uning «al-Hudā» o'n sakkiz «vajh» uzra kelgan» degan so'ziga kelsak», deb, o'zida mavjud bo'lgan boshqa asardan iqtibos keltirish bilan boshlaydi. H.Zaydonning asarni boblarga bo'lish va raqamlashdagi uslubi birinchi bobdan boshlab chalkashlikni yuzaga keltirgan. Chunki nashrda (وَذَلِكَ مِثْلُ قَوْلِهِ) so'zlaridan keyin ikki ustma-ust nuqta (:) qo'yilib, past qatordan «al-hudā» (الْهُدَى) so'zi «1» raqami bilan raqamlanib, bob nomi sifatida ko'rsatilgan va tabiiyki jumla bo'linib qolgan. Natijada Hakim Termiziy keltirgan iqtibos matnda ko'zga tashlanmay qoladi va, deyilgan jumla go'yo Termiziyga tegishlidek aks etadi. Termiziyning o'zi esa «al-hudā» so'zining o'n beshtagina vajhini sanab o'tgan. Oqibatda bobning boshlanishi va tarkibiy tuzilishida mantiqiy uzilish yuzaga kelgandek tasavvur hosil bo'ladi. Shuning uchun ushbu uslub barcha o'rinlarda ham muvaffaqsiz chiqqan, deb bo'lmaydi.*

Nashrning sanab o'tilgan va boshqa ayrim jihatlari tadqiqotchini bir qarashda chalg'itishi mumkin. Buning oldini olish uchun matnga kiritilgan raqamlar va boblarga bo'linishni olib tashlab o'qish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan asarni nafaqat manbashunoslik, balki, matnshunoslik nuqtai nazaridan ham o'rganilishi nihoyatda muhim. Bu esa birinchi navbatda, «Tahsil nazoir al-Qur'on» asarining mavjud qo'lyozmalari asosida ilmiy-tanqidiy matnini yaratish kerakligini, so'ngra uning asosida asar tarjimasini amalga oshirish lozimligini anglatadi. Asarning tarjimasini zamonaviy nashriga qarab amalga oshirish maqsadga muvofiq emas. Zamonaviy nashr qo'lyozmadan ko'plab prinsipial masalalarda farq qiladi va bu hatto arab tadqiqotchilarni ham xato xulosalar chiqarishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratishga zarurat mavjud.

Dissertatsiyadagi «**Tahsil nazoir al-Qur'on»dagi Qur'on ilmlariga doir uslublarning ahamiyati», deb nomlangan uchinchi bobning «Asarda qo'llanilgan sharhlash uslublari tahlili», deb atalgan birinchi paragrafida Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qur'on»ni ta'lif qilishda qo'llagan uslubi «vujuh va nazoir» bo'yicha asar yozgan boshqa mualliflarnikidan farq qilishi tahliliy xulosalar orqali ochib berilgan.**

Asarni tadqiq qilish jarayonida quyidagi qisqa umumlashgan xulosalarni aytish mumkin: a) asar raddiya uslubida yozilgan; b) asarning yuzaga kelishiga boshqa bir asar sabab bo'lgan; v) asarda qo'llanilgan uslub ilgari kuzatilmagan; g) asar uslubi keyingi davrlarda takrorlanmagan.

Hakim Termiziy asarning yozilish sababini uning qo'liga shu mavzudagi kitob tushib qolgani bilan izohlagan va undagi ayrim holatlarga raddiya tarzida birma-bir izohlar keltira boshlagan. U o'zidan avvalgi mualliflardan farqli ravishda muayyan

oyatda bu soʻz bunday maʼnoda kelgan, deb sanab ketavermasdan, masalaga nazariy yondoshgan. U har bir oʻrinda kelgan soʻz maʼnolari aslida soʻzning oʻzagida va mohiyatida mavjudligini isbotlashga harakat qilgan. Natijada, soʻzlarning turli maʼnolarni aks ettirish sabablari atroflicha sharhlana boshlagan.

Hakim Termiziyda ham, undan oldingi mualliflarda ham soʻzlarning joylashuvi muayyan tartibga ega, ammo bu tartibning sababi hech qayerda izohlanmagan. Hakim Termiziy «vujuh va nazoir» boʻyicha asar yozgan boshqa mualliflar kabi «nazoir»larni sanashni «al-hudā» (hidoyat) soʻzidan boshlagan. Soʻngra «al-kufr» (kufr), «ash-shirk» (koʻpxudolik), «savāʾ» (barobar), «al-maraz» (kasallik), «al-fasād» (buzgʻunchilik), soʻzlarining sharhi bilan davom etgan. Roʻyxat nega aynan bu tartibda ketganiga Hakim Termiziyda ham, uning salaflarida ham hech qanday izoh berilmagan. Qurʼon matni bilan solishtirish natijasida soʻzlar roʻyxati ularning Qurʼonning ilk sahifasidan oxiriga qadar uchray boshlashiga qarab tartiblangani aniqlandi.

Yaqin davrda «vujuh va nazoir»ga oid tadqiqot qilgan olimalardan Salvo M. Avoning fikricha, Hakim Termiziy, «raʼy» (aqlga tayanish) bilan tafsir qilish yoʻlini tutgan, «Tahsil nazoir al-Qurʼon» esa fikriy yoʻnalishdagi asar boʻlib, keyinchalik tilshunoslarning mazhabiga aylanib ketgan. S.Avo bu uslubning xossatan «vujuh va nazoir» mavzusida qoʻllanilishi oʻziga xos inqilob boʻlib, undan avval birorta muallifda kuzatilmagan, deya eʼtirof etadi. Marokashlik olim Xolid Zahriyning fikricha, Hakim Termiziyning barcha asarlarida u qaysi sohaga tegishli boʻlmasin, tilning taʼviliga eʼtibor qaratilgan. Bu maslak unda bosh yoʻnalish sifatida taʼvil oʻrin tutadi. Uning taʼvillari nafaqat lugʻaviy asosga, balki kashf va irfoniy-tasavvufiy poydevorga ham tayanadi. Hakim Termiziy taʼvilda aql va naqlning muvozanatini taʼminlashga harakat qilgan²⁰. Turk olimi S.Qoyaga koʻra, Hakim Termiziyning uslubi Qurʼon atamalarini tasavvufiy anglashinuviga zamin hozirlashi lozim edi. Alloma filologik tahliliy yondoshuv bilan diniy-mistik – ishoriy-botiniy yondoshuvni oʻzaro muvozanatga keltirishga zamin hozirlagan. Hakim Termiziyning sharhlash yondoshuvida asosiy masala soʻzlarning «tamal maʼnosi»ni belgilab olish ekanini qayd etadi. Hakim Termiziyning «tamal maʼno» tushunchasi bir soʻzning turli maʼnolarda turlanishiga eng asosiy omil sifatida oʻrtaga chiqadi²¹.

Hakim Termiziyning oʻz asarida asosiy urgʻuni arab tilidagi muayyan bir soʻz hech bir sababsiz bir necha maʼnolarni anglatma olmasligiga qaratgan²². Yaʼni u omonimiyani rad etadi. Uningcha, soʻzlarning bir shaklga ega boʻla turib boshqa-boshqa maʼnolarni anglatishi soʻzning oʻzagida aynan shu maʼnolarni tasdiqlovchi xususiyatlar mavjud ekaniga borib taqaladi. Mazkur uslub bilan Hakim Termiziy oʻzidan ilgari uchramagan bir nazariyani ilgari suradi. U oʻz nazariyasini tushuntirish va asoslash uchun bir qancha uslublarni qoʻllaydi. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

1. qisqa izoh;
2. lugʻaviy izoh;

²⁰ Zahriy X. – Tajalliyot al-burhon va haqiq al-irfon. – Dorulbayzo: Dor ar-rashod al-hadisa, 2009. – S. 26-29.

²¹ Kaya S. Hakîm etTirmîzîʼde vücûh ve nezâir. – Istanbul: Ragbet, 2016. – S. 156-159.

²² Zahriy X. Hakimu Xuroson va anis az-zamon. – Rabot: ar-Riyoza al-muhammadiyah lil-ulamo, 2013. – S. 103.

3. o‘zak va o‘zakdoshlar tahlili;
4. solishtirish;
5. diniy argumentasiya (oyat va hadislar orqali isbotlash);
6. batafsil izoh;

«Tahsil nazoir al-Qur‘on»da mazkur uslublar orqali Qur‘onda kelgan 81ta so‘zni «nazoir» o‘laroq keltirilib, (71ta ot, 8ta fe‘l, 2ta sifat) ularning umumiy hisobda 258ta «vajh»i, ya‘ni ma‘nosi sanab o‘tilgan.

Asardagi oxirgi so‘z «as-sabīl», ya‘ni yo‘l bo‘lib, shundan keyin qo‘lyozma kotibning xotimasi bilan tugaydi. Bunday noodatiy uzilish Hakim Termiziyning muallif xotimasi bilan tugagan boshqa asarlariga qiyoslaganda, biror sabab bilan tugallanmay qolgan yoki kotibga shunday holatda yetib kelgan, degan taxmini ilgari surishga asos bo‘ladi.

Uchinchi bobning «*Hakim Termiziyning tafsir va ta‘vil borasidagi qarashlari*» deb nomlangan ikkinchi paragrafida Hakim Termiziyning asarda qo‘llagan tafsir va ta‘vil uslublari batafsil yoritilgan.

Hakim Termiziy «Tahsil nazoir al-Qur‘on» raddiya berilayotgan asardagi so‘zlarga berilgan ma‘noni «tafsir qilingan» (مفسرة), muallifning so‘zidan iqtibos keltirayotganda esa, «so‘ngra uning tafsiri bundayligini topdik» (ثم وجدنا تفسيره) yoki «Ammo uning tafsiridagi gapiga kelsak» (أما قوله في تفسيره) qabilidagi jummalarni ishlatgan. Ya‘ni, u noma‘lum (anonim) asardan iqtibos keltirar ekan, undagi «vajh»lar bayon qilingan jummalarni tafsir, deb ataydi. Ammo, o‘zi biror so‘zning «vajhi»ni ya‘ni ma‘nosini bayon qiladigan bo‘lsa, uni «ta‘vil», deb ataydi. Mazkur holatni «az-zikr», «al-xavf», «as-salāt», «al-katb», «al-ma‘rūf», «at-tāg‘ūt», «ba‘sā‘u va zarrā‘u», «al-xāsirūn», «al-istitoat» kabi nazoirning sharhida ko‘rish mumkin.

Ayrim o‘rinlarda Hakim Termiziy o‘zi keltirgan fikrlarga nisbatan «tafsir» atamasini ham qo‘llagan. Mazkur jummalarga e‘tibor berib qaralsa, ulardan keyin jumlaning quvvatlovchi oyat keltirilganiga guvoh bo‘linadi. Ammo muayyan bir so‘zning «ta‘vili» deyilgan o‘rinlarda oyatdan misol keltirilmagan. Bundan kelib chiqadiki, alloma oyatlarning sharhiga nisbatan «tafsir» atamasini qo‘llagan hollarning barchasida oyat va hadislariga tayangan. Oyat sharhlari lug‘aviy tahlil va aqliy mushohadaga tayangan bo‘lsa, uni «ta‘vil» ekanini qayd etgan. Bu holat Imom Moturidiyning tafsir qat‘iy dalilga tayanishi, ta‘vil esa ehtimollardan munosibi tanlab olinishi to‘g‘risidagi qarashiga muvofiq keladi. Ayni muvofiqlik Hakim Termiziy «Tahsil nazoir al-Qur‘on»da ta‘vil va tafsirning farqini aniq ajratib qo‘llaganini ko‘rsatadi.

Hakim Termiziy ta‘vil tushunchasini mutlaq ijobiy ma‘noda bayon qiladi. Ta‘villarni anglovchilar Allohning nuri fazlidan nasibador, laduniy ilm (iste‘dod) sohiblari sifatida ko‘riladi. Ta‘vil quruq aqliy izlanishlarning mahsuli emas, balki, Allohning bandaga bo‘lgan marhamati natijasi o‘laroq, muayyan o‘rindagi Uning xohish-istagini anglashdir. Ammo ta‘vilni anglash mazkur ilmga loyiq darajadagi shaxslarning iqtidori doirasidagi masala bo‘lib, barcha ham bunday talabga javob bera olmaydi.

Hakim Tyermiziy Qur‘onda kelgan ta‘vilning birinchi vajhini tafsir (التفسير) bilan aynan bir ma‘noda, deb izohlaydi. Chunki ta‘vil Qur‘onda ma‘nosi yashirin

bo‘lib turgan o‘rinlardan to‘siqlarni ochib tashlaydi va so‘zning ma‘no-maqsadi oydinlashadi. Ta‘vilning Qur‘ondagi ikkinchi ma‘nosi (تعبير الرؤيا) tush ta‘biri²³ bo‘lib, Hakim Termiziy buni tushning ta‘bir qilishga va uni haqiqat tiliga o‘girib beruvchi ta‘birchiga muhtoj ko‘chma ma‘nodagi masallardan iborat ekani bilan izohlaydi. Ya‘ni ta‘bir qiluvchi Alloh tushda tashbeh yo‘li ila zarbulmasalini bergan ishining (أمر الله الذي ضرب أمثاله) mohiyatiga yetib boradi. Aynan o‘sha narsa ishning avvali (أول الأمر) bo‘lib, bu o‘rinda zarbulmasal ikkilamchidir. Ta‘vil ya‘ni ta‘bir qiluvchi uni «avvali»ga o‘giradi. «Avvali» esa «Lavh al-mahfuz»da taqdir qilingan narsadir²⁴.

Tush ta‘birining ta‘vil so‘zi bilan ifodalanishi sababi – ta‘bir qilinishi lozim bo‘lgan narsaning majoz va tashbeh yo‘li bilan ifodalanganidir. Ya‘ni ma‘nosi yuzaki, ochiq-oydin narsaning ta‘vilga ehtiyoji bo‘lmaydi. Tush esa majoz va tashbeh hamda zarbulmasallardan iborat. Uni «avvali»ga ya‘ni maqsadiga qaytarib, mohiyatini ochib berish esa ta‘vil, deyiladi. Bu qarashni qoida, deb olinadigan bo‘lsa, Qur‘ondagi mutashobeh oyatlar albatta ta‘vil qilinishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Chunki mutashobeh ham zarbulmasal kabi majoziy ma‘noga ega bo‘lib, ularning zohiri mohiyatni ifoda qilmay, har ikkisida mohiyatni ochib berish zarurati mavjud. Yana bir muhim masala Hakim Termiziyda «vajh» va «vujuh» atamalarining ta‘vil bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Ya‘ni Hakim Termiziyga ko‘ra «vajh» bu – so‘zning ta‘vilidir. Hakim Termiziyga ko‘ra ta‘vil bu – majozning haqiqatini, tashbehning mohiyatini, ishning maqsadini ochib berishdir.

«*Alloma e‘tiqodiy qarashlarining asar uslubiga ta‘siri*», deb atalgan uchinchi paragrafda Hakim Termiziyning aqidaviy yondoshuvlari va aqliy usullari hanafiy-moturidiylik ta‘limoti o‘rtasida uzviy bog‘liqlik borligini ochib berilgan. Hakim Termiziy ilmiy merosini o‘rgangan ayrim tadqiqotchilar uning Imom Moturidiy qarashlariga bevosita ta‘siri borligini qayd etganlar.

«Tahsil nazoir al-Qur‘on»da iymonning tasdiq ekaniga qat‘iy ishora qilinadi: «Tasdiqqa [kelsak] – chindan ham, bu o‘rinda iymon tasdiqqa evriladi. Chunki, tasdiq qalbning ishidir. Chindan ham, banda osoyishtalik va barqarorlik topgandan so‘ng tasdiq etadi. Barqarorlik va osoyishtalik mohiyatini anglash o‘sha tasdiqdandir»²⁵. Imonning tasdiqdan iborat ekani haqidagi qarashlar aynan hanafiy-moturidiy aqidasi yondoshuvini aks ettiradi. Bu borada Imom Moturidiyning «Kitob at-tavhid» asarida iymon tasdiqdan iborat ekani haqida bayon qilingan²⁶.

Hakim Termiziy aqlning imon masalasidagi ahamiyatini alohida qayd etadi. Unga ko‘ra, aql va tavhid nuri o‘zaro chambarchas bog‘liq narsalardir. Shirkning johiliyat (aqtsizlik, bilimsizlik), deb nomlanishi sababi ham aqlning tavhid bilan bir maromda mavjud bo‘lmasligi oqibatida yuzaga kelganidan ekani bayon qilinadi.

Bu o‘rinda aqlning imonni qabul qilishdagi o‘rni nihoyatda aniq va yuksak

²³ Qarang: Yusuf:44; 100. // Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. Tarj. A.Mansur. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016.

²⁴ at-Termiziy, al-Hakim. – Tahsil nazoiri-l-Qur‘on. Nashrga tayyorlovchi Husniy Zaydon. – Qohira: Matbaatu-s-saoda, 1969. – B. 116.

²⁵ O‘sha manba. – B. 125.

²⁶ Al-Moturidiy, Abu Mansur Muhammad. Kitob at-tavhid. Nashrga tayyorlovchi B.To‘polo‘g‘li. – Istanbul: Irshod, 2018. – B. 441.

baholanishining guvohi bo'lish mumkin. Shu bilan birga imonsizlik aqlsizlik natijasi ekani to'g'risidagi nazariya aks tushuncha o'laroq aqlsizlik imonsizlikni keltirib chiqarishi ehtimolini taqozo etadi. Ko'pgina shirk amallarning manbai aqlsizlik, johillik, ma'rifatsizlik ekani namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, Hakim Termiziy nazdida aql ulug' ne'matdir. Imon esa aqldan ham ulug'roq. Chunki birinchi bosqich, ikkinchi bosqichdan ko'ra quyi bo'ladi. Aql va imon birlashganda undan ham yuqori bosqich – siddiqlikka yetishiladi²⁷.

Alloma aqlning inson ongi va qalbini muvozanatda saqlash, shuningdek imon-e'tiqodining sofligini ta'minlashning asosiy omili sifatida ko'radi. Shu bilan birga, «Tahsil nazoir al-Qur'on»da islom, imon kabi e'tiqodiy tushunchalar hanafiy mazhabi nuqtai nazaridan yoritilgan. Hakim Termiziyning boshqa asarlarida ham ayni yondoshuv mavjudligini hisobga olgan holda, «Tahsil nazoir al-Qur'on» hanafiy mazhabi bo'yicha ta'vil qilish uslubiyatini yaratishdagi ilk harakatlardan biri bo'lgan, deyish mumkin.

XULOSA

Dissertasiyada keltirilgan maqsad va vazifalar doirasida amalga oshirilgan tadqiqot va tahlillardan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hakim Termiziy asarlarining ilmiy tahlili natijasida, olimning Qur'on ilmlari va tafsir (6 ta), hadis sharhi (1 ta), lug'at (4 ta) kabi islom manbalari sharhiga doir jami 11 ta asar yozgani aniqlandi. Mazkur asarlardan «Tafsir» (Fotiha va Baqara suralari tafsiri), «Tafsiru qavlihi: «Huval-Avvalu val-Oxiru vaz-Zohiru val-Botinu» (Hadid surasi 1 oyati tafsiri), «Mas'ala: qola Alloh: «v-Allohu ya'lamu mutaqallabakum va masvokum» (Muhammad surasi 1 oyati tafsiri), bevosita tafsirga doir ekani, «al-Amsol min al-Kitob vas-sunna», «Navodir al-usul» asarlarida esa Qur'onning ko'plab oyatlari tafsiri mavjudligi, lug'atga oid asarlarda asosan Qur'on va hadislarda uchraydigan so'zlar izohlangani, «Tahsil nazoir al-Qur'on» asari esa tafsir va ta'vil ilmi asoslariga doir manbadir. Hakim Termiziyning ilmiy merosi turli xil yo'nalishlarga oid bo'lib, islom manbalarini to'g'ri anglash masalalariga yechim berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. «Vujuh va nazoir» (ma'nolar va shakldoshlar) ilmi ilk islom davrida shakllana boshlagan, sahobiy Ibn Abbos va uning shogirdlari Ikrima hamda Ali ibn Abu Talha orqali VIII asrga kelib Qur'on ilmlarining mustaqil tarmog'i sifatida to'liq shakllangan. Mazkur ilmga doir hozirgi kunga qadar yetib kelgan eng qadimiy manba aynan VIII asrga oiddir. «Vujuh va nazoir» ilmining oyatlarni tafsir va ta'vil qilishda ahamiyati katta bo'lib, unda Qur'ondagi ayrim tanlangan so'zlarning ko'pma'nolilik xususiyatlari o'rganilgan. Zamonaviy qur'onshunoslik va tilshunoslikda bu tarmoqqa shartli ravishda Qur'on lug'atining polisemiyasi – ko'pma'nolilik xususiyati, deb baho berilgan.

3. «Vujuh va nazoir» ilmiga oid barcha ma'lumotlarni jamlab ilk to'liq asar yaratgan olim Muqotil ibn Sulaymon (vaf. 767 y.) hisoblanadi. Uning «al-Vujuh va n-nazoir fil-Qur'on» asari hozirgi davrga qadar yetib kelgan eng qadimiy manbadir.

²⁷ Hakim Termiziy. Ma'rifatul asror. – Tarjimon A. Tursunov. – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – B. 48.

Muqotil ibn Sulaymon tanlagan uslub soʻzlarning Qurʼonda ketma-ket uchrashi bilan bogʻliq boʻlib, keyingi davrlarda yaratilgan bir qancha asarlarga, xususan Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qurʼon» asariga ham asos boʻlgan. Hakim Termiziyga qadar Horun ibn Muso (vaf. 787 y.) va Yahyo ibn Salom (vaf. 816 y.) «vujuh va nazoir»ga oid asar yozgani maʼlum. Mazkur uchta asar soʻzlarning tartibi boʻyicha «Tahsil nazoir al-Qurʼon» bilan bir yoʻnalishda boʻlib, sharhlash uslubida Hakim Termiziy asardan koʻzlangan maqsadni taʼvil qilish asoslarini ochib berishga qaratgan, natijada butkul unikal uslubdagi asar vujudga kelgan.

4. «Tahsil nazoir al-Qurʼon»ning ikkita qoʻlyozmasi aniqlangan boʻlib, har ikkisi boshqa asarlar bilan bir toʻplam tarkibida saqlanadi. Birinchi qadimiy nusxa Misrning Iskandariya shahri Baladiya kutubxonasida saqlanadi va u XI asrga oiddir. Uning kotibi mashhur tarixchi Ibn Adim boʻlib, uning yaxshi saqlangani sababi, toʻplamning oʻrtasidan joy olgani bilan bogʻliq. Ammo asarning anʼanaviy xotima qismi yoʻqligi, uning toʻliq saqlamagani yoki nihoyasiga yetmaganiga dalolat qiladi. Ikkinchi – XX asrga oid qoʻlyozma Misrning Qohira shahridagi «Dor al-kutub va-l-vasoiq»da (Kitoblar va hujjatlar uyi) saqlanib, unga Iskandariya nusxasi asos boʻlgan.

5. Asar qoʻlyozmalari XX asr oʻrtalaridan boshlab ilmiy tadqiq qilina boshlagan. Ammo tadqiqotchilar turli uslublarni tanlagani bois, ularning keltirgan maʼlumotlarida farqli jihatlar va noaniqliklar vujudga kelgan. «Tahsil nazoir al-Qurʼon»ning H.Zaydon tomonidan tayyorlangan zamonaviy nashri «nazoir»larning boblarga boʻlinishi, «vajh»larning bandlarga ajratilishi masalalarida qoʻlyozmadan keskin farq qiladi. Asarni tadqiq qilgan keyingi davr olimlari koʻp masalalarda aynan shu nashrga tayanganlari sababli, ularning tadqiqotlarida ham turli xil noaniqliklar va notoʻgʻri tushunilgan oʻrinlar vujudga kelgan. Shu sababdan asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va ayni matn asosida uning turli tillarga tarjimalarini amalga oshirish zarurati mavjud.

6. Hakim Termiziyning «Tahsil nazoir al-Qurʼon» asrida Qurʼonda kelgan soʻzlarni sharhlash uslubi oʻz davri uchun unikal boʻlib, undan avval ham keyin ham bunday uslub qoʻllanmagani bilan ajralib turadi. Asar «vujuh va nazoir»ga oid boshqa bir asarga raddiya sifatida yozilgan boʻlib, raddiyaga sabab boʻlgan manba hozirga qadar maʼlum emas. Hakim Termiziy «Tahsil nazoir al-Qurʼon»da «vujuh va nazoir»ga oid asarlarda qoʻllanilgan anʼanaviy uslubni tanqid qilgan va bu uslub Qurʼondagi koʻpmaʼnolilik sabablarini ochib bera olmasligini taʼkidlagan. Muammoning yechimi sifatida oʻzining oʻzak va asosiy maʼnoga tayanadigani nazariyasini ilgari suradi. Unga koʻra bir soʻzning bitta asosiy maʼnosi boʻlib, qolgan maʼnolari asosiy maʼnoning turli maʼnolarda jilolanishi natijasida yuzaga keladi, yaʼni har qanday turfa maʼnolar asosiy maʼnoning turli koʻrinishlaridir. Agar soʻzga berilayotgan maʼno oyat va hadis bilan quvvatlansa, uni tafsir deyiladi, boshqa turli uslublarda isbotlansa, taʼvil deyiladi.

7. «Tahsil nazoir al-Qurʼon»da soʻzlarning koʻpmaʼnolilik xususiyati taʼvil tushunchasi bilan bevosita bogʻliqdir. Qurʼonda kelgan bir soʻzning bir vaqtning oʻzida koʻplab maʼnolarni anglatishini bayon etishdan maqsad uni yuzaki tushunilishi bilan bogʻliq muammolarni hal qilishga qaratilganidir. Taʼvil esa aynan

shu kabi muammolarni hal qiladi. «Tahsil nazoir al-Qur'on»da ilk bora ta'vilning asoslarini yoritishga bo'lgan harakat ko'zga tashlanadi. Hakim Termiziy yoritgan ta'vil uslublaridan ayrimlari Imom Moturidiyning «Ta'vilot ahl as-sunna» asarida ham o'z aksini topgan.

8. «Tahsil nazoir al-Qur'on»da ayrim so'zlar aqidaviy atamalar sifatida sharhlangan. Ushbu atamalar hanafiy-moturidiylik aqidaviy ta'limoti bilan hamohang talqin qilingan. Xususan, imonga "qalb fe'li" sifatida ma'no berilishi, uning tasdiqdan iborat ekani, aqlning imonni anglashdagi muhim o'rni aqliy va naqliy dalillar asosida yoritib berilgan. Shu bilan birga, so'zlarning va aqidaviy atamalarning hamda ularning inson qalbida aks etishida aqlning o'rni beqiyos ekani ochib berilgan. Aql va naqlning uyg'unligi masalasi allomaning boshqa asarlarida ham o'z aksini topgani qiyosiy tahlil natijasida uning aqidada Abu Hanifaga ergashgani ma'lum bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida olingan natija va xulosalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

1. «Tahsil nazoir al-Qur'on»ning Qur'on va tafsir ilmlarida muhim asarligidan kelib chiqib, «Hakim Termiziyning Qur'on va tafsir ilmiga qo'shgan hissasi» nomli monografiya tayyorlash;

2. Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bilan hamkorlikda «Tahsil nazoir al-Qur'on»ning Hakim Termiziy Qur'on, tafsir va ta'vil ilmlariga oid qarashlarini jamlagan tayanch manba ekanini inobatga olgan holda asarning qo'lyozmalari asosida ilmiy-tanqidiy matnini yaratish hamda o'zbek tilidagi ilmiy-izohli tarjimasini amalga oshirish;

3. Hakim Termiziy ilmiy merosining islom olamidagi nufuzi va islom sivilizasiyasi shakllanishida katta ta'sirini inobatga olgan holda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, shuningdek, barcha mahalliy hamda xalqaro turdosh tashkilotlar hamkorligida «Hakim Termiziy ilmiy-ma'naviy merosining islom ta'limoti shakllanishidagi o'rni» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish.

**SCIENTIFIC COUNCIL UNDER
DSc.35/30.12.2019.IsI/Tar/F.57.01 FOR AWARDED SCIENTIFIC
DEGREES AT THE INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF
UZBEKISTAN**

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

FAKHRIDDINOV ZAFAR KHAYRIDDINOVICH

**HAKIM TIRMIDHI'S WORK OF «TAHSIL NAZAIR AL-QUR'AN» IS AN
IMPORTANT SOURCE ON QUR'ANIC SCIENCES**

24.00.02 – Quranic studies. Hadith studies.

**ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) DISSERTATION ON
ISLAMIC SCIENCE**

Tashkent - 2023

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation on historical sciences was registered by the Supreme Attestation Commission under B2021.2.PhD/Isl55.

The dissertation was completed at the International Islamic Academy of Uzbekistan .

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.iiiau.uz .uz) and on the information-educational portal "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor: **Usmonov Ibrohim Sobirovich**
Candidate of historical sciences, associate professor

Official opponents: **Mukhamedov Nematullo Asatillayevich**
Doctor of historical sciences, associate professor

Namozov Bobir Bahriyevich
Doctor of historical sciences, associate professor

Leading organization: **Imam Bukhari international scientific research center**

Defense of dissertation will be held on «__» Juny 2023, at _____ at the meeting of the Scientific Council No. DSc 35/30.12.2019. Isl/Tar/F. 57.01 at the International Islamic Academy of Uzbekistan (address: 100011, Tashkent city, A.Kadiri Street, 11. Phone number: (99871) 244 00 56; fax: (99871) 2440065; e-mail:info@iiiau.uz).

Doctoral dissertation is available in the Information Resource Centre of the International Islamic Academy of Uzbekistan. (Registration number №130). Address: 100011, Tashkent city, A.Kadiri Street, 11. Phone number: (99871) 244 00 56)

Abstract of dissertation was distributed on «__» may 2023.
(Registry record No. 3 dated «5» may 2023).

D.R. Makhsudov

Chairman of the Scientific Council for the Awarding Scientific Degrees, Doctor of Historical sciences (DSc), Professor

S.A. Rustami

Scientific Secretary of Scientific Council for the Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological sciences (DSc), Associate Professor

Z. M. Islamov

Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council, Doctor of Philological sciences, Professor

INTRODUCTION (Abstract of doctoral dissertation (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. In the conditions of globalization in the world, it is becoming more and more important to correctly understand the essence of the Holy Qur'an, the holy source of Islam. In this regard, the sciences of «tafsir and ta'wil» (التفسير والتاويل), which are considered important parts of «Ulum al-Qur'an» (علوم القرآن – Qur'anic sciences), occupy a special place. In this regard, the scientific legacy of Hakim Tirmidhi, a scholar from Mawarannahr, has an important place. Tirmidhi's work «Tahsil nazair al-Qur'an» (تحصيل نظائر القرآن – «Collection of homonyms of the Qur'an») contains important theories about the basic concepts of «ta'wil» and «wujuh and nazair» (الوجوه والنظائر – meanings and formatives), the source of which in the Middle Ages. had a great influence on the formation of views of Muslim scholars in this direction. This work is of special importance in determining the development of Qur'anic sciences and development characteristics of «tafsir and ta'wil».

Systematic researches are being carried out in research centers of Islamic Studies in the world on the study of Tirmidhi's legacy of Quranic sciences. Western scholars are paying attention to the research of scholars' views on Sufism, hadith and vocabulary, while Eastern Muslim scholars are paying attention to identifying the manuscripts of Hakim Tirmidhi's works, carrying out their codicological and comparative analysis, and revealing their social significance. Researching «Tahsil nazair al-Qur'an» on a scientific basis, along with studying the history of the formation of methods of interpretation of the Qur'anic verses and «wujuh wa nazair" (الوجوه والنظائر), also serves to find solutions to today's urgent problems.

Reforms are being carried out in the religious and educational sphere in the modernizing Uzbekistan. As a result, Imam Tirmidhi International Scientific Research Center was established in order to research the scientific heritage of Termez scholars, identify manuscripts, prepare their modern edition, translation and commentaries, and deliver them to the general public. The complete scientific and critical text of Hakim Tirmidhi's work «Nawadir al-usul» (نوادير الاصول – «Rare methods»), «Manhiyyat» (المنهيات – «Returned actions»), «Adab al-nafs» (ادب النفس – «Manners of the Soul») was created and selections from other books were translated and published. The study of the work «Tahsil nazair al-Qur'an» allows to determine the position of scholars in the formation of the network of «wujuh and nazair», which is considered an important part of «tafsir and ta'wil» from the knowledge of the Qur'an.

This dissertation serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the decrees and resolutions such as the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 16, 2018 No. PF-5416 «On measures to radically improve the activities of the religious and educational sphere», No. PQ-2774 dated February 14, 2017 «On measures for the establishment of Imam Tirmidhi International Scientific Research Center» and No. PQ-3080 of June 23, 2017 «On measures to establish the center of Islamic civilization in Uzbekistan under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan» and No. PQ-2995 of

May 24, 2017 «On measures to further improve the system of preservation, research and promotion of ancient written sources».

Compliance of the research with the priorities of the Republic's science and technology development. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the Republic I. «Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation».

The level of study of the problem. Hakim Tirmidhi's life, activities, and scientific heritage have been researched by Western and Eastern orientalists, Islamic scholars, and many scientific articles have been published in this regard.

Western scientists V. Bartold, V. Zhukovsky, I. Petrushevsky, E. Bertels, I. Goldtsier, J. Trimmingham, A. Mez, K. Brockelman, A. Masse, A. Knish, L. Massignon, N. Heer, B. Radtke, A. Arberry, P. Nwiya, A. Schimmel gave important information about Central Asian mystics and their scientific heritage, Hakim Tirmidhi's life and work¹.

In the studies of Arab scholars such as K. Avayza, A. Baraka, A. Sayeh, U. Yahya, M. Juyushi, R. Huzayyan, Kh. Zahri, brief information is given about the life and works of Hakim Tirmidhi, in particular, «Tahsil nazair al-Qur'an». . The Egyptian scholar Husni Zaydon prepared the book «Tahsil nazair al-Qur'an» by Hakim Tirmidhi and published it in 1969. S. al-Ava and N. Munajjid, one of the modern Arab researchers, conducted fundamental researches in the study of the «wujuh and nazair» network of Quranic sciences. In their research, Hakim Tirmidhi's approach to «wujuh and nazair» was specifically emphasized².

